

JEYN OSTINNING "ANDISHA VA G'URUR" ROMANIDA OPA- SINGILLAR OBRAZI TASVIRI

Abdumalikova Dilnavoz

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada adabiyotshunoslikda, obraz va timsollardan foydalanish, "Andisha va g'urur" romanidan o'rin olgan opa-singillar obrazi, ularning umumiy va xususiy jihatlari, opa-singillar obrazining asar badiiyatida tutgan o'rni hamda ularning partret tasviriga alohida o'rin berilgan.

Kalit so'zlar: Badiiy obraz, talqin qilish, ta'sirchanlik, tasvir, partret, peyzaj, Elizabet, konflikt, mohiyat.

Badiiy adabiyotda opa-singillar obrazini turli millatlarning folklori, mifologiyasi va klassik asarlarida ko'p uchraydi. Opa-singillar o'rtasidagi munosabatlar, bir biriga bo'lgan muhabbat va adovat, hayotiy sinovlar va qahramonliklar orqali ko'plab asarlarda aks etgan. Ular odatda mehr-muhabbat, qahramonlik, yoki ba'zida hasad va raqobat mavzulari bilan tasvirlangan. Ushbu maqolamiz orqali esa biz, Angliya adabiyotining nodir asarlaridan biri bo'lgan Jejn Ostinning "Andisha va g'urur" romanidan o'rin olgan opa-singillar karakter-xususiyatlarini, o'zaro o'xshash va farqli jihatlari, his-tuyg'u hamda tashqi ko'rinishdagi umumiy va xususiy ko'rinishlarini ko'rsatishni maqsad qildik. Quyida romandan o'rin olgan opa-singillar obrazi bilan yaqindan tanishasiz.

Asarda XVIII asr Angliya ijtimoiy hayoti yaqqol gavdalantirilgan. Besh qizi bor, va mana shu qizlarini turmushga berish uchun barcha ayyorliklarni ishga soluvchi, og'ziga kelgan har qanday bo'lmag'ur gapni bemalol gapiradigan missis Bennet, o'z ustida tinmay ishlovchi, shunga qaramasdan hech qanday natijaga erishmagan, shuhratparastligi oqibatidan o'z kamchiliklarini ko'rmaydigan, oilaning eng ko'rimsiz qizi sifatida tasvirlangan Meri, ishlari zobitlarga tannozlik qilish va qanday bo'lmasin turmushga chiqish bo'lgan, hayotga yengil-yelpi qarovchi Kitti va Lidiya obrazlari asarning salbiy qahramonlari bo'lib kelan.

Kambag'allashgan dvoryan, kitob o'qish eng sevimli mashg'uloti bo'lgan mister Bennet, uning go'zallikda, shuningdek, oqko'ngillikda tengi yo'q to'ng'ich qizi Jejn, husn bobida opasidan qolishmaydigan, qat'iyatli, aqlli, oilaning barcha a'zolariga g'amxor bo'lgan Elizabet obrazi esa ijobiy obrazlar qatoridan o'rin olgan.

Mavzumiz bevosita opa-singillar bilan bog'liq ekan, asardagi qizlar tasviriga alohida to'xtalib o'tishini lozim deb topdik:

Jejn – oilaning to'ng'ich qizi. Romanni o'qish davomida Jejn opa-singillarning eng go'zali sifatida ta'riflanadi. Xattoki, shunday mag'rur mister Darsi va mister Bingli

tomonidan ham u shu vaqtgacha uchratgan qizlar orasidan eng go‘zali deb e’tirof etiladi. Shuningdek, u bir ish qilishga ahd qildimi, gapidan qaytmaydigan, hamda hayotni sevishi bilan boshqa singillaridan ajralib turadigan opa sifatida gavdalantilgan: “Jeyn, azizam, sen shunchalik ko‘ngilchansanki! Oqilligingning chegarasi yo‘q. Hozir kerakli so‘z topolmayapman, lekin menga shunday tuyulyaptiki, men hech ham sening qadringga yetmagan va seni yetarlicha yaxshi ko‘rmagan ekanman.”¹

Elizabet – Bennetlar oilasining ikkinchi qizi. Romanning bosh qahramoni, asardagi boshqa obrazlardan farqli ravishda uni otasi hamma qizlaridan ham ma’niliroq deb biladi. Sayohatlarga jo‘natmaslikka, va o‘z oldidan uzoqlashtirmaslikka harakat qiladi. Elizaga otasining sog‘lom fikrlash qobiliyati o‘tgan. Qolaversa, uning tashqi ko‘rinishiga berilgan : “Lekin do‘stlariga qizning birorta ham o‘ziga tortadigan joyi yo‘qligini isbotlab bo‘lishi bilan, birdan o‘zi bilmagan holda qizning yuzi uning chiroyli ko‘zlarining ifodasi bilan misli ko‘rilmagan darajada samimiy va yoqimtoy ko‘rinishini seza boshladi. Bu yangilikdan keyin boshqa va yana boshqa narsalar ham seza boshladi.. U o‘zining injiq nazari bilan qizning tashqi ko‘rinishi juda ham kamchiliklardan holi emasligini ko‘rib tursa-da, uning odamni o‘ziga tortadigan bir sehri borligini tan oldi. Shu bilan birga, Elizabetning o‘zini tutishi oily tabaqalarnikidan farq qiladi, deb ta’kidlasa-da, qizning o‘zini erkin tuta bilishi uni rom qilayotgan edi.”² , - yo‘sindagi ta’rif ham uni chiroy bobida opasidan deyarli farq qilmasligini ko‘rsatadi. Elizabet raqibalari tomonidan qo‘pol va gerdaygan deya ta’riflansa-da mister Darsi tomonidan uning go‘zalligiga yuqori baho beriladi: “- Rostan ham bu ko‘zlarning ifodasini chizish oson bo‘lmasa kerak. Lekin, bu ko‘zlarning shaklini, rangini, uzun kipriklarini yaxshi rassom chiza olsa kerak.”³ Shuningdek, Lizzining eng sevimli mashg‘uloti kitob o‘qish, kuy chalish hamda sayohat qilish edi. Qiyin vaziyatlarda ham o‘zini tuta olishi, oilasining sha’niga o‘zini mas’ul deb bilishi, qolaversa, opasi Jeynni baxtli bo‘lishi uchun har narsaga tayyorligi, kelajakda boy-badavlat yashash imkoni bo‘la turib, opasini muhabbatidan ayirgan insonga turmushga chiqishdan bosh tortishi qizning naqadar mehribon singil ekanligi va ko‘plarda yo‘q insoniy sifatlaridan darak beradi.

Meri – asardagi uchinchi qiz. Romanda Meri haqida boshqa qizlarchalik ko‘p to‘xtalib o‘tilmagan: “Bu Bennetlar oilasidagi qizlarning ko‘rimsizrog‘i bo‘lib, doimo o‘z ustida ishlar va qayerda bo‘lmasin o‘zini ko‘rsatishga harakat qilar edi. Merining na qobiliyati va na didi bor edi. Uning shuhratparastligi uni bir joyda o‘tirib ishlay oladigan, ayni paytda esa o‘z-o‘zidan mag‘rurlanadigan qilib qo‘ygan ediki, bu narsa uning ijrosi zo‘r bo‘lgan taqdirda ham salbiy iz qoldirar edi.”⁴ Tashqi ko‘rinishidagi

¹ Jeyn Ostin. Andisha va g‘urur. Yangi asr avlodi. T.2021. B-148.

² Jeyn Ostin. Andisha va g‘urur. Yangi asr avlodi. T.2021. B-30.

³ Jeyn Ostin. Andisha va g‘urur. Yangi asr avlodi. T.2021. B-61 .

⁴ Jeyn Ostin. Andisha va g‘urur. Yangi asr avlodi. T. 2021. B-36 .

kamchiliklarni u o‘zining qobiliyatlari va aqli bilan berkitishga harakat qiladi. Lekin uning o‘z ustida tinimsiz ishlashi o‘z-o‘zidan g‘ururlanadigan, xatolarini ko‘ra olmaydigan kimsaga aylantirib qo‘yadi. Xattoki, bir ballda undan qo‘shiq aytib berishlarini iltimos qilishganda ham shuhratparastligi sababli yig‘ilganlar uning ustidan kulayotganlarini anglamaydi: “Merida jamoat oldida ashula aytadigan hech qanday iqtidor yo‘q edi: ovozi kuchsiz, ijro mahorati ham yo‘q. Elizabet o‘zini qayerga qo‘yishni bilmadi. Elizabet mister Binglining singillari tomonga qaradi va ularning bir-birlariga va mister Darsiga qarab imo-ishora bilan masxra qilib o‘tirganlarini ko‘rib qoldi. Mister Darsi esa o‘zini hech narsa tushunmayotganga solib o‘tirar edi. Elizabet nihoyat otasi tomonga yalingannamo qarab qo‘ydi: agar otasi aralashmasa, Meri o‘zining qo‘shig‘ini tonggacha cho‘zishi umkin edi.”⁵ Ushbu misol orqali ham Merining va Elizabetning bir biriga tamoman zid tabiatini bilib olishimiz mumkin.

Ketrin yoki Kitti – oilaning o‘n sakkiz yoshli to‘rtinchi qizi. Kitti haqida gapirganimizda albatta kenjatoy Lidiyani ham birgaikda o‘rganishimiz zarur. Sababi, romanning deyarli oxiriga qadar Kitti va Lidiya birgalikda ta’riflanadi va bir-biridan ajralmagan holda tasvirlanadi. Ikki qiz yozuvchi tomonidan yoqimtoy deb aytib o‘tiladi, fe‘l-at‘vori esa: “Ayniqsa, ularning kichkinalari Ketrin va Lidiya bunga juda usta edilar. Opa-singillar ichida yengiltakroq bo‘lgan bu ikki qiz, boshqa qiziqarli narsa bo‘lmagani uchun nonushtadan keyin o‘zlarini xursand qilish va kechqurun uyqu oldidan g‘iybatlashib yotish uchun yangiliklardan xabardor bo‘lgani, albatta, Meritonga borib kelishlari kerak edi.”⁶ Qizlar otalari tomonidan ham “qirollikning eng tentak qizlari” degan ta’rifga munosib topiladi. Kitti tabiatan Lidiyaning ta’siri ostida, Lidiya esa “doimo betgachopar”, “surbet, aqlsiz, tinib-tinchimas, maqtanchoq va o‘ziga bino qo‘ygan” qiz edi. “Onasining erkatoyi bo‘lgan o‘n besh yoshli Lidiya istarasi issiq, baland bo‘yli qiz edi. Aynan shuning uchun ham u shunchalik yosh bo‘lishiga qaramay, allaqachon mehmondorchilikka yura boshlagan va amakisinikiga uning shirin ovqatlarini birga baham ko‘rishga kelib turadigan zobitlarning unga e’tibor qilishi natijasida, o‘ziga bino qo‘ygan bir yengiltak qizga aylanishga ulgurgan edi.”⁷ Mana shunday sifatlarga ega singilisining ta’siridagi Kitti ham Lidiyadan farq qilmaydigan, hayotni faqat o‘yin-kulgudan iborat deb biladigan insonga aylanib qolgan edi.

Asar davomida Jeyn va Elizabetning bir-biriga bo‘lgan chin ma’nodagi opa-singillik rishtalari juda ko‘p o‘rinlarda o‘quvchini hayajonga soladi. Mister Bingli Nezerfilddan jo‘nab ketgandan keying Jeynning iztiroblari eng yaqin insoni sifatida Elizaning ham qalbiga ko‘chadi. Opasining muhabbatini poymol bo‘lishiga sababchi bo‘lgan odam mister Darsi unga turmush qurishni taklif qilganda, qanchalik boy va

⁵ Jeyn Ostin. Andisha va g‘urur. Yangi asr avlodi. T.2021. B-32.

⁶ Jeyn Ostin. Andisha va g‘urur. Yangi asr avlodi. T.2021. B-36.

⁷ Jeyn Ostin. Andisha va g‘urur. Yangi asr avlodi. T.2021. B-53.

hurmatli ayolga aylanishini bilib turgan bo‘lsa ham, Elizabet bu taklifga rozilik bermaydi.

Lidiyaning oilasini sha’nini o‘ylamasdan zobit Uikxem bilan qochib ketishi, buning natijasida oilaning chekkan azoblari to‘rt opa-singilni bir-biriga jipslashtiradi.

“Andisha va g‘urur” ga diqqat qiladigan bo‘lsak, unda Bennetlardan tashqari Binglilar va Lukaslar oilasining opa-singillik aloqalari aks etgan o‘rinlarni ham uchratishimiz mumkin.

Roman so‘ngida Jeyn va Elizabet o‘zlariga mos insonlar bilan baxtli oila qurishadi, uyda esa yolg‘iz Meri qoladi.” U o‘zi xohlamagan tarzda o‘z ustida ishlash fikrini tashladi, chunki missis Bennet bir daqiqa ham o‘zi qolishni istamasdi. Shunday qilib, Meri, sal narsaga nasihat qilish odatini tashlamagan bo‘lsa-da, oila hayotida ko‘proq ishtirok eta boshladi.”⁸

Lidiyaning hayotida Uikxemdek razil odamga turmushga chiqqanining o‘zi bir fojia bo‘lsada, qiz hali buni anglab yetganicha yo‘q edi. Ular Elizabet ortidan mister Darining beradigan yordamiga umid qilishlari asar nihoyasida keltirib o‘tilgan.

Lidiya turmushga chiqqach Ketrinning tarbiyasida yaxshigina o‘zgarish bo‘ladi. Azaldan boshqalarning ta’siriga tez tushadigan Kitti Elizabet va Jeynning rahnbarligida ancha ijobiy tomonga o‘zgaradi. Harakatchan va savodli qizga aylanib, ilgari jizzaki tabiatni ham bartaraf etadi.

Asar shu tarzda yaxshilik bilan nihoyalandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adabiyot nazariyasi 1-, 2-tomlar. 1979.
2. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. 1980.
3. Jeyn Ostin. Andisha va g‘urur. T.: Yangi asr avlodi. 2021. B-40.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Gorgon_Meduza

⁸ Jeyn Ostin. Andisha va g‘urur. Yangi asr avlodi. T. 2021. B-401.